

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 8-fevral kuni o'tkaziladi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/general-meeting-20240208>

"O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 8-fevral kuni soat 11:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy manzilida joylashgan jamiyatning ma'muriy binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBI:

1. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zosi Sh. Vafayevning vakolatini muddatidan avval tugatish.
4. "O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kengashi a'zosini saylash.
5. "O'zkimyosanoat" AJning qo'shimcha aksiyalarini chiqarish orqali ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish.
6. "O'zkimyosanoat" AJning aksiyalar qo'shimcha chiqarilishi to'g'risidagi qarorini tasdiqlash.
7. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoat va axborot texnologiyalari sohasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish bo'yicha birinchi o'rinbosarini tasdiqlash.
8. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining investitsiyalar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosarini tasdiqlash.

Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati 2024-yil 2-fevral holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan tuziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2024-yil 8-fevral kuni soat 10:00 da boshlanib, soat 11:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan kelishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98.

"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kyengashi